



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

**MUNDARIJA**

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	<b>7</b>
<b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	<b>18</b>
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	<b>21</b>
<b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	<b>24</b>
<b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	<b>28</b>
<b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	<b>33</b>
<b>Vaxtohunova D.N.</b> Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	<b>36</b>
<b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	<b>41</b>
<b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	<b>45</b>
<b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	<b>50</b>
<b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	<b>53</b>
<b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	<b>56</b>
<b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	<b>62</b>
<b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	<b>68</b>
<b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	<b>72</b>
<b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	<b>76</b>
<b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	<b>80</b>
<b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	<b>85</b>
<b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	<b>89</b>
<b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>97</b>
<b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	<b>100</b>
<b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	<b>104</b>
<b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	<b>108</b>
<b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	<b>111</b>
<b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....	<b>115</b>
<b>Ustadjalilov D.R.</b> O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	<b>119</b>
<b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	<b>125</b>
<b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	<b>129</b>
<b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	<b>136</b>
<b>Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	<b>140</b>

<b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	<b>147</b>
<b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	<b>154</b>
<b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<b>159</b>
<b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	<b>165</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>169</b>
<b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	<b>175</b>
<b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	<b>183</b>
<b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	<b>188</b>
<b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	<b>192</b>
<b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	<b>197</b>
<b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	<b>203</b>
<b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	<b>211</b>
<b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	<b>216</b>
<b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	<b>221</b>
<b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	<b>225</b>
<b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	<b>230</b>
<b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	<b>238</b>
<b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	<b>241</b>
<b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	<b>246</b>
<b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	<b>252</b>
<b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>255</b>
<b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	<b>259</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тadbirkorlikning моҳияти ва хориж тажрибаси.....	<b>264</b>
<b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	<b>268</b>
<b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	<b>272</b>
<b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	<b>276</b>
<b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	<b>280</b>
<b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>284</b>
<b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	<b>288</b>
<b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	<b>292</b>
<b>Rejapov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	<b>297</b>

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA  
STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI

АКТУАЛЬНОСТЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ  
УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

THE RELEVANCE OF STRATEGIC MANAGEMENT IN ENSURING THE STABILITY  
OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES

To‘ychiyeva Begoyim Voxidjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasini o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarishning dolzarbligi va zarurati yoritilgan. Raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining keng joriy etilishi korxonalar faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu nuqtai nazardan, strategik boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini qo‘llash, raqamli transformatsiyani korxonalar strategiyasiga integratsiya qilish hamda innovatsion rivojlanish omillarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning oziq-ovqat sanoati barqarorligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdagi roli tahlil qilinib, strategik boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Strategiya, strategik boshqarish, boshqarish mexanizmi, ta’sir etuvchi omillar, islohotlar, oziq-ovqat sanoati, eksport, import.

В статье раскрыта актуальность и необходимость стратегического управления предприятиями пищевой промышленности в условиях цифровой экономики. Широкое внедрение цифровых технологий и информационных систем кардинально изменяет процессы планирования, контроля и анализа деятельности предприятий. С этой точки зрения особое значение приобретает применение современных подходов к стратегическому управлению, интеграция цифровой трансформации в стратегию предприятия и учет факторов инновационного развития. В исследовании проанализирована роль цифровой экономики в повышении устойчивости, эффективности и конкурентоспособности пищевой промышленности, а также представлены практические рекомендации по совершенствованию стратегического управления.

**Ключевые слова.** Стратегия, стратегический менеджмент, механизм управления, факторы влияния, реформы, пищевая промышленность, экспорт, импорт.

The article highlights the relevance and necessity of strategic management in food industry enterprises under the conditions of the digital economy. The widespread implementation of digital technologies and information systems is fundamentally transforming the processes of planning, control, and analysis within enterprises. From this perspective, applying modern approaches to strategic management, integrating digital transformation into corporate strategies, and considering innovation-driven factors are of particular importance. The study analyzes the role of the digital economy in enhancing the sustainability, efficiency, and competitiveness of the food industry and provides practical recommendations for improving strategic management practices.

**Keywords.** Strategy, strategic management, management mechanism, influencing factors, reforms, food industry, exports, imports.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal rivojlanishi barcha sohalarda, jumladan, oziq-ovqat sanoatida ham boshqaruv tizimlarini tubdan o‘zgartirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda

ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi, sun’iy intellekt, “Big Data”, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va bulutli texnologiyalarni joriy etish korxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bunday sharoitda strategik boshqaruvning roli yanada ortib, raqamli transformatsiya jarayonlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va ularni samarali boshqarish korxonaning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda.

Oziq-ovqat sanoati iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholini sifatli mahsulotlar bilan uzluksiz ta‘minlash hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ushbu sohada strategik boshqaruvni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash va innovatsion yondashuvlar asosida qarorlar qabul qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarishning nazariy asoslari, raqamli transformatsiyaning amaliy imkoniyatlari hamda boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlash, barqaror rivojlanish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu amalga oshirilayotgan tadqiqotimiz doirasida oziq-ovqat sanoati faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha mahalliy olimlarimizning tadqiqotlari o‘rganib chiqildi. Jumladan A.Ortiqovning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirishda, ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda va tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan[2]. Shuningdek, M.Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotda oziq-ovqat sanoati iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan hamda tadqiq qilingan mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy salohiyati baholash ishlari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot ishida yuqoridagi ishlardan farqli o‘laroq oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish xususida so‘z yuritildi.

Strategik boshqaruvni korxonada faoliyatida tashkil qilish jarayoni bir nechta kichik bosqichlardan iborat. Birinchi bosqichda tashqi muhit va raqobat sharoitlari tahlil qilinadi, ikkinchi bosqichda korxonaning ichki imkoniyatlari o‘rganiladi, uchinchi bosqichda esa strategiyalarni ishlab chiqish bilan yakunlanadi (1-jadval).

Korxonada faoliyatida strategik boshqaruvni tadbiq qilishda korxonaning amal qiladigan tarkibiy tuzilmasi hamda milliy qadriyatlarini inobatga olgan holda shakllanishi zarur. Ushbu qadriyatlarni strategik boshqaruv faoliyatida inobatga olinishi ijtimoiy muhit sog‘lomligini ta‘minlaydi.

**1-jadval**

**Strategik boshqaruvning tarkibiy qismlari [1]**

<b>Tarkibiy qism</b>	<b>Ma‘nosi</b>
<b>Operativ boshqaruv</b>	Operativ boshqaruv tez va aniq vazifalarni bajarishni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, kundalik rejalashtirilgan rahbarlikni mehnat jamoalari bilan ta‘minlaydi.
<b>Strategik rejalashtirish</b>	Strategik rejalashtirish asosan kelajakni oldindan ko‘ra bilish va uzoq muddatli yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, ko‘plab korxonalarining ichki resurslarga tayanib, qisqa muddatli natijalarga ustuvorlik berishi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Strategik rejalashtirishning asosiy vazifasi esa korxonaning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligini ta‘minlashdan iboratdir.
<b>Korxonada siyosati</b>	Korxonada siyosati bu jarayonni belgilangan strategik yo‘nalishlar tomonidan yo‘naltirishga xizmat qiluvchi boshqaruv vositasidir. Bu qarama-qarshi qarorlarni hal qilishga yordam beradi va bitta struktura rejasini yaratishga, rahbarlarga vakolatlarni topshirishga imkon beradi, nazoratni o‘z qo‘lida saqlaydi.


Strategik boshqaruvning tarkibiy qismlarini inobatga olish korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta‘minlash va korxonada faoliyatini maqsadli yo‘naltirishda zarur bo‘lgan to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishda muhim hisoblanadi.

Natijada esa korxonada ichki va tashqi iqtisodiy muhitni yaxshiroq tahlil qilishga, shuningdek, qanday risklar va imkoniyatlar mavjudligini aniqlash kabi ma’lumotlarga ega bo’ladi. Bu esa korxonada uchun bozorda to’g’ri pozitsiyani tanlash va strategik yo’nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Oziq-ovqat sanoati korxonasi faoliyatini strategik boshqarish bu korxonaning barqarorligini ta’minlashda muhim hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida faoliyati davomida strategik boshqaruvni amalga oshirish, nafaqat korxonaning ichki jarayonlarini optimallashtirish, balki bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolishning ham asosiy omili sanaladi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida faoliyatida strategik boshqaruvni tashkil etishning bir nechta metodologiyasi mavjud bo’lib, 1-rasmda ushbu metodologiyaning faoliyat turiga oson moslasha oladigan shakli keltirilgan.

Oziq-ovqat sanoati tez o’zgaruvchan va murakkab soha bo’lgani sababli, ushbu korxonalar faoliyatini strategik boshqaruv orqali to’g’ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu jarayonni to’g’ri tashkil etish esa korxonaning oldiga qo’yilgan reja va vazifalarni o’z vaqtida va o’rinli xal etish imkonini beradi.



**1-rasm. Oziq-ovqat sanoat korxonasi faoliyatini strategik boshqarish metodologiyasi [2]**

Strategik boshqaruv bo’lmagan taqdirda, korxonada bozor sharoitlariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa, o’z navbatida, korxonaning bozor raqobatida o’rnini yo’qotishiga olib keladi.

Korxonada strategik boshqaruvni joriy etish jarayonida, eng avvalo, aniq va asosli strategik maqsadlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlar quyidagi omillar orqali asoslanadi:

1. Faoliyatning yuqori daromadga erishtiradigan yo’nalishlarini ajratib olish hamda unga mos strategik rejalarni ishlab chiqish. Tahlilning vazifasi korxonani rivojlantirishning asosiy yo’nalishlarini aniqlash va har bir yo’nalishni amalga oshirishda korxonaning pozitsiyasini aniq belgilash.

2. Korxonaning innovatsion imkoniyatlarini tahlil qilish. Ushbu bosqichda korxonaning texnika-texnologiyasi, boshqaruv tizimi va tashkiliy tuzilmasi darajasi eng optimal variantlar bilan taqqoslanadi.

3. Tarmoqni rivojlantirish ssenariylarini tahlil qilish. Korxonaning strategiyasiga mos maqsadlarni ishlab chiqish.

4. Korxonaning strategik pozitsiyasining ko‘zlangan maqsadlariga erishishda obyektiv cheklovlarni hisobga olish. Strategik maqsadlarni shakllantirishga dastlabki yondashuvlar korxonaning strategik innovatsion pozitsiyasi yoki ko‘zlangan mo‘ljaliga asoslanadi.

5. Asosiy maqsadiga erishishni ta‘minlaydigan asosiy strategik maqsadlar tizimini shakllantirish. Bunda asosiy strategik maqsadlarni shakllantirish orqali o‘zaro bog‘liqlikdagi “Maqsadlar daraxti” loyihasi ishlab chiqiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarish ularning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga keng joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Strategik boshqaruv tizimiga raqamli transformatsiya elementlarini integratsiya qilish korxonalar faoliyatini tizimli rejalashtirish, bozor talablariga moslashish va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli kompetensiyalarni oshirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash strategik boshqaruv samaradorligining ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik boshqaruvini takomillashtirish nafaqat korxonada iqtisodiy natijadorlikni oshiradi, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Зиявитдинова Н.М. Кластерный подход в стратегии инновационного развития агропромышленного комплекса региона//Интернаука: электрон. научн. журн. 2019. №23(105).
2. Друкер Питер Ф. Задачи менеджмента в ХХИ веке: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2002. 128 с.
2. Katerina Kutran. Organizational and Economic Arrangements of Economic Systems Management. Revista ESPACIOS. ISSN 0798 1015 Vol. 38 (Nº 46) Year 2017. Page 41-51.
3. Керашев А.А., Байбекова Р.А. Организационно-экономические аспекты создания и эффективного функционирования вертикально-интегрированных формирований в АПК // Вестник Адыгейского гос. ун-та, 2007. №1. С. 54 – 60.
4. Кулман А. А. Экономические механизмы//. М.: Прогресс; Универс., 1993.92 с.
5. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012. -№5с.23-29.